

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi
huzuridagi Jamoatchilik kengashining 2023- yil uchun
ISH REJASI

№	Tadbir nomlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
1.	Samarqand viloyati statistika boshqarmasi faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining tashabbuslari va murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etish, Statistika boshqarmasiga tegishli takliflar kiritish va ko'rib chiqish.	doimiy	T. Sidikov M. Ixtiyorov M. Ibodullayev
2.	Qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlar doirasida ishtirok etish, bajarilgan ishlar samaradorligini tahlil qilish, xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritish.	yil davomida	Jamoatlik kengashi a'zolari
3.	Samarqand viloyati statistika boshqarmasi Hay'ati yig'ilishlarida ishtirok etish, Hay'at yig'ilishi jaryonidan kelib chiqqib takliflar va tavsiyalar kiritish, faoliyati davomida kamchiliklarga yo'l qo'yayotgan hududiy statistika organlariga doimiy amaliy yordam ko'rsatib borish.	2022- yil 4-chorakda	Jamoatlik kengashi a'zolari

№	Tadbir nomlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
4.	<p>Viloyat statistika boshqarmasi faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagi kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi xodimlari ishtirokida kiritilgan takliflarni muhokama qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish.</p>	2022-yil noyabr	<p>T. Sidikov F. Eshonqulov</p>
5.	<p>Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida sog'lom ma'naviy muhitni rivojlantirish, qonun ustuvorligi, yuqori huquqiy madaniyat va axloqni ta'minlash bo'yichatakliflarni ishlab chiqish, xodimlar ro'yxatida vatanga bo'lgan sadoqat tuyg'usini, qonunlarga hurmat ruhini kuchaytirish, ularning ijtimoiy, siyosiy, psixologik va ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishi uchun, shuningdek, statistika sohasidagi ilmiy va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish.</p>	tadbirlarni o'rganish, takliflar tayyorlash yil davomida	<p>M. Ixtiyorov F. Eshonqulov N. Akramova</p>
6.	<p>Samarqand viloyati statistika boshqarmasi xodimlari va ularning oila a'zolarining uy-joy, ijtimoiy, maishiy va xizmat ko'rsatish sharoitlarini yaxshilash, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish shart-sharoitlariga ko'maklashish.</p>	yil davomida	<p>T. Sidikov G.Muxamadiyeva</p>
7.	<p>Ishdan bo'shatilgan yoki ro'yxatdan o'tgan xodimlarning ijtimoiy va kasbiy moslashuvi muammolarini hal qilish.</p>	savollar tug'ilgan hollarda	<p>T. Sidikov G.Muxamadiyeva</p>
8.	<p>Samarqand viloyati statistika boshqarmasi xodimlari o'rtasida xodimlar va ularning oilalarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish masalalari bo'yicha keng tushuntirish ishlarini tashkilotish.</p>	2023-yil mart	<p>T. Sidikov G.Muxamadiyeva</p>

№	Tadbir nomlari	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
9.	Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shuningdek, fuqarolar bilan hamkorlik qilish.	doimiy	M. Ixtiyorov U. Xudoyberdiyev
10.	Statistika organlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar, davlat statistika hisobotlari shakllari va 2023- yil uchun Davlat statistika ishlari dasturini bajarilishi yuzasidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar muhokamasi	2023-yil fevral	Jamoatlik kengashi a'zolari
11.	Viloyat statistika boshqarmasi xodimlariga ulaming kasbiy mehnat faoliyati, ulaming funksional vazifalarini bajarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek, davlat statistika organlari faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha, umumiy masalalar bo'yicha maslahat berish va amaliy yordam ko'rsatish.	savollar tug'ilgan hollarda	Jamoatlik kengashi a'zolari
12.	Samarqand viloyati statistika boshqarmasi faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariyva ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, "davra suhbatlari" da ishtirok etish.	yil davomida	M. Ibodullayev, B. Avutxonov, F. Eshonkulov
13.	Samarqand viloyati statistika boshqarmasi faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalarini tahlil qilish, faoliyat samaradorligini oshirishva mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.	tahlil qilib borish, takliflar kiritish yil davomida	M. Ibodullayev M. Ixtiyorov F. Eshonkulov